



**XORAZM VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**



**XORAZM VILOYATINING
SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

**2022- YIL YANVAR-FEVRAL
(DASTLABKI MA'LUMOT)**



Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2022- yil yanvar-fevral oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2 380,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 116,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelgan va uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,5 % ni tashkil etdi.




B

Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash




C

Ishlab chiqaradigan
sanoat



D



Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash



E

Suv bilan ta'minlash;
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 17,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 1,5 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning – 7,1 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,14 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,006 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd so'm

Yanvar-fevral

FHI,% da



2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 296,7 mlrd so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,5 % ini tashkil etdi.

2021- yil yanvar-fevral


95,3 %

2022- yil yanvar-fevral

96,5 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,04 % ni (2021- yilning yanvar-fevral oylarida – 0,06 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 39,2 % (37,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 2,4 % (2,6 %) va quyi texnologiyali – 54,9 % (54,8 %) ni tashkil etdi.

■ 2022- yil ■ 2021- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 40,0 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,6 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 81,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 26,2 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 137,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 27,3 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,4 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,3 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxtadan yigirilgan ip




Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)



Maxsus yengil avtomobillar





2022- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 11 573,6 tonna (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 23,2 % ga oshgan), paxta chigiti 2 9108,2 (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 27,1 % ga oshgan), 5 153,0 tonna paxtadan yigirilgan ip (11,7 % oshgan), 9 283,0 yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillarsiz) (18,4 % oshgan), 3 720,0 dona maxsus yengil avtomobil (205,2 % ga oshgan), o'simlik yog'i 3 669,7 tonna (7,1 % oshgan), xo'jalik sovuni 492,5 tonna (41,4 % kamaygan) hamda 13 999,0 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (5,2 % ga kamaygan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz),dona	7841,0	9283,0	1442,0
Maxsus yengil avtomobillar, dona	1219,0	3720,0	2501,0
Paxtadan yigirilgan ip,tonna	4613,2	5153,0	539,8
Paxta tolasi,tonna	9394,0	11573,6	2179,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	14760,8	13999,0	-761,8
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna	3425,7	3669,7	244,0


yanvar-fevral, yirik korxonalar bo'yicha

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 78,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 0,6 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 591,3 mlrd so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2020- yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 122,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 135,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 58,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


2020- yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 113,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 39,6 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 615,9 mlrd so'mni tashkil etdi.




Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 123,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 8,9 mlrd so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2020- yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 101,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida asosiy farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,05 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 140,3 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-fevral oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 153,4 % .


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 131,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 6,3 mlrd so'mni tashkil etdi.




Elektr uskunalar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 121,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 164,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4,0 mlrd so'mni tashkil etdi.



Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish




2020- yil yanvar-fevral oylarida boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 51,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 210,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 25,6 mlrd so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish


2020- yil yanvar-fevral oylarida avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 40,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 118,4 % .

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 39,2 % ni, fizik hajm indeksi 105,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 900,5 mlrd so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 68,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,9 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,5 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	30,3	20,6	-9,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	32,8	31,4	-1,4
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm.	317 773,0	332 902,0	15 129,0

yanvar – fevral, yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,7 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	718 884,0	1 076 847,0	357 963
Tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	15 579 642,0	17 798 799,0	2 219 157
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	3 567 135,0	3 458 880,0	108 255

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 49,8 % ga, tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 14,2 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 336,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 118,0 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 56,1 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-fevral

43,7%

2022- yil
yanvar-fevral

43,8%

Nooziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-fevral

56,3%

2022- yil
yanvar-fevral




56,2%

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 72,8% ni , Urganch shahrida 11,9 % ni va Xonqa tumanida 3,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (118,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yangiariq tumanida (157,7 %), Urganch shahrida (120,6 %) hamda Tuproqqal'a tumanida (120,2 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 72,8 % ni , Urganch shahrida 11,9 % ni va Xonqa tumanida 3,0 % ni tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 85,3 %, shuningdek, Urganch shahrida 5,4 % ni, Xonqa tumanida 1,9 % ni tashkil etdi.

638,1


mlrd so'm

2021- yil yanvar-fevral


751,7

mlrd so'm

2022- yil yanvar-fevral




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi



2021- yil

94,1 %



2022- yil

117,8 %


Xorazm viloyati	117,8	751,7
Urganch shahri	104,5	40,7
Xiva shahri	93,1	3,3
Bog'ot tumani	106,9	5,7
Gurlan tumani	100,0	5,0
Qo'shko'pir tumani	107,4	5,8
Urganch tumani	86,5	6,6
Hazorasp tumani	112,3	4,6
Tuproqqal'a tumani	118,7	641,0
Xonqa tumani	131,1	14,3
Xiva tumani	121,1	4,6
Shovot tumani	97,8	5,2
Yangiariq tumani	257,7	11,5
Yangibozor tumani	100,2	3,4

o'sish sur'ati

mlrd so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati




Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 56,8 % ni, shuningdek, Urganch shahrida 20,2 % ni, Xonqa tumanida 4,3 % ni tashkil etdi.



2021- yil yanvar-fevral



2022- yil yanvar-fevral



o'sish sur'ati
mlrd so'm

Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 52,6 %, shuningdek, Urganch shahrida 13,9 % ni, Urganch tumanida 5,8 % ni, Xonqa tumanida 4,0 % ni tashkil etdi.

Xorazm viloyati
2021- yil

1 741,4 mlrd so'm

2022- yil


2 380,2 mlrd so'm


2021- yil

119,6 %

2022- yil

116,5 %




FHI, % da

mlrd so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (22 568,1 ming so'm), Urganch shahrida (2 271,3 ming so'm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1 247,0 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.



o'sish sur'ati
ming so'm

Xorazm viloyati

2021- yil

926,3 ming so'm

2022- yil

1 247,0 ming so'm



117,8 %


2021- yil

114,7 %

2022- yil

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 384,6 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 16,2 % ni tashkil etdi.



Xorazm viloyati

2021- yil

280,5 mlrd soʻm

2022- yil

384,6 mlrd soʻm



16,1 %

2021- yil

16,2 %

2022- yil

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 700,3 ming so'm bo'lgani holda, Tuproqqal'a tumanida 17 544,1 ming so'mni, Urganch shahrida 1 089,9 ming so'mni tashkil etdi.

Xorazm viloyati

2021- yil

602,5 ming so'm

2022- yil

700,3 ming so'm



2021- yil

94,9 %

2022- yil

116,2 %

Xorazm viloyati	116,2	700,3
Urganch shahri	119,3	1 089,9
Xiva shahri	95,4	119,1
Bog'ot tumani	99,6	115,1
Gurlan tumani	109,8	115,7
Qo'shko'pir tumani	103,2	77,9
Urganch tumani	95,6	129,6
Hazorasp tumani	101,0	72,3
Tuproqqal'a tumani	117,0	17 544,1
Xonqa tumani	110,5	208,4
Xiva tumani	102,1	90,7
Shovot tumani	97,1	110,0
Yangiariq tumani	155,4	163,0
Yangibozor tumani	96,3	121,1

o'sish sur'ati

ming so'm

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 305 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 828 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 19,2 %) Urganch shahriga, 506 tasi (11,8 %) Urganch tumaniga, 404 tasi (9,4 %) Qo'shko'pir tumaniga, 379 tasi (8,8 %) Xonqa tumaniga va 348 tasi (8,1 %) Xiva shahriga to'g'ri kelmoqda.

